

elementi sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir, garchi u nihoyatda muhim bo'lsa ham. Bunday yondashuv boshqaruvning umumiy funksiyalarining uzviy bog'liqligi bilan izohlanadi: tahlil o'z-o'zidan muhim emas, balki samarali boshqaruv tizimining ajralmas qismi sifatida ahamiyatlidir. Haqiqatan ham, bir tomondan asoslangan qaror har doim ma'lum analitik jarayonlar ma'lumotlariga asoslanadi, boshqa tomondan esa tahlil keyinchalik qandaydir boshqaruv qarorini qabul qilish uchun amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi 2019 yil 8 oktabr, PF-5847-sonli Farmoni.

2. Abdusattorova D.B. "O'zbekiston oliy ta'lim eksport xizmatlari moliyaviy natijadorligini ta'minlash yo'llari" Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal, ISSN: 2992-8992 №4 2025-yil, Aprel_1593. 1239-1244-b.

3. Akramova Sh.G. Jamiyatda inson kapitaliga investitsiya darajasini baholash. // Iqtisod va moliya. – Toshkent, 2012. – №8. 52-59 b.

4. Kuldashv Sh.A. Oliy ta'lim muassasalari raqobat ustunligini ta'minlash omillari va ko'rsatgichlari. "Ekonomika i sotsium". 2024. -№6(121). 27-34b.

O'ZBEKISTON – 2030 STRATEGIYASI DOIRASIDA SUG'URTA BOZORIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR VA IQTISODIY GLOBALLASHUV SHAROITIDA SUG'URTA MUNOSABATLARINING AHAMIYATI

Boymurodova Lobar Tursunboy qizi
TDIU tayanch doktoranti

Hozirgi davrda iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi moliyaviy infratuzilmaning rivojlanganligi bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu tizimning muhim elementlaridan biri bu sug'urta bozori hisoblanadi. Sug'urta tizimi iqtisodiyotda risklarni boshqarish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash hamda investitsion resurslarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, globallashuv jarayonlari kuchayib borayotgan sharoitda sug'urta munosabatlari iqtisodiy xavflarni kamaytirishning asosiy mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, moliyaviy tizimni liberallashtirish hamda bozor institutlarini rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlarning muhim bosqichlaridan biri "O'zbekiston – 2030" strategiyasi bo'lib, u mamlakatning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'nalishlarini belgilab beradi. Strategiya mamlakatda kuchli iqtisodiyot yaratish, global ishlab chiqarish zanjirlarida faol ishtirok etish hamda moliyaviy sektorni rivojlantirishga qaratilgan⁵⁹.

Mazkur strategiya doirasida moliya bozorlarini, jumladan sug'urta sektorini rivojlantirish muhim ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Sug'urta bozori iqtisodiyotda risklarni taqsimlash, investitsiyalarni jalb qilish hamda tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

⁵⁹ https://gov.uz/en/pages/2030_strategy - O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali

Biroq, mamlakat sug'urta bozorida bir qator muammolar mavjud bo'lib, ular ushbu sohaning to'liq rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda. Jumladan, aholining sug'urta xizmatlariga bo'lgan ishonchining yetarli emasligi, sug'urta madaniyatining pastligi, raqamli texnologiyalarni joriy etishdagi kamchiliklar hamda qayta sug'urta tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi ushbu muammolar qatoriga kiradi⁶⁰.

Shu sababli, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida sug'urta bozorini rivojlantirish, undagi muammolarni bartaraf etish hamda globallashtirish sharoitida sug'urta munosabatlarining ahamiyatini oshirish muhim ilmiy va amaliy masala hisoblanadi.

Sug'urta bozori – bu sug'urta xizmatlarini taklif etuvchi sug'urta tashkilotlari hamda ushbu xizmatlardan foydalanadigan jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar majmuasidir. Sug'urta tizimi iqtisodiyotda risklarni kamaytirish hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Sug'urta tizimi quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:

- *risklarni taqsimlash funksiyasi* – sug'urta iqtisodiyotdagi turli risklarni ko'plab subyektlar o'rtasida taqsimlash orqali zararlarni kamaytiradi;

- *moliyaviy barqarorlikni ta'minlash* – sug'urta tizimi korxonalar va aholining moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi;

- *investitsion faoliyatni rag'batlantirish* – sug'urta kompaniyalari to'plangan sug'urta mukofotlarini investitsiya qilish orqali iqtisodiyotga qo'shimcha moliyaviy resurslar kiritadi;

- *ijtimoiy himoya funksiyasi* – sug'urta tizimi aholini turli iqtisodiy xavflardan himoya qiladi.

Sug'urta tizimining rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining umumiy rivojlanish darajasi bilan uzviy bog'liqdir. Rivojlangan davlatlarda sug'urta bozori moliya tizimining muhim elementi hisoblanadi. Ushbu davlatlarda sug'urta kompaniyalari nafaqat risklarni boshqarish, balki investitsiya jarayonlarida ham faol ishtirok etadi.

O'zbekiston iqtisodiyotida ham sug'urta sektorining ahamiyati yildan-yilga ortib bormoqda. So'nggi yillarda sug'urta xizmatlariga bo'lgan talab oshib, sug'urta mukofotlari hajmi sezilarli darajada ko'paygan. Masalan, 2025-yilning birinchi choragida O'zbekistonda sug'urta kompaniyalari tomonidan yig'ilgan mukofotlar hajmi 2,63 trillion so'mni tashkil etib, bu o'tgan yilga nisbatan 18,8 foizga ko'p bo'lgan⁶¹.

Shu bilan birga, mamlakat sug'urta bozori rivojlanish sur'atlari ham yuqori bo'lib, so'nggi yillarda bozor o'rtacha yillik o'sish sur'ati 27 foizdan ortiq bo'lgan⁶².

Bu ko'rsatkichlar sug'urta sektorining iqtisodiyotdagi rolini oshib borayotganini ko'rsatadi.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasi mamlakatning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'nalishlarini belgilab beruvchi muhim hujjat hisoblanadi. Strategiya mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, global iqtisodiy tizimga integratsiyalash hamda aholining turmush darajasini oshirishga qaratilgan.

Mazkur strategiyaning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- iqtisodiy o'sishni ta'minlash;

- sanoatni modernizatsiya qilish;

⁶⁰ <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/> - Yashil iqtisodiy taraqqiyot

⁶¹ UzDaily.uz - <https://www.uzdaily.uz/en/uzbekistans-insurance-market-grows-by-188-in-q1-2025/>

⁶² H.Umarov, A.Buriyev. O'zbekiston sug'urta bozorining tahliliy sharhi. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. Ilmiy elektron jurnal. UO'K: 368.912.

- investitsiyalarni jalb qilish;
- moliyaviy bozorlarni rivojlantirish;
- aholi farovonligini oshirish.

Strategiya doirasida iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha aniq maqsadlar belgilangan. Jumladan, mamlakat yalpi ichki mahsulotini sezilarli darajada oshirish hamda iqtisodiyotning raqobatbardoshligini kuchaytirish rejalashtirilgan⁶³. Mazkur maqsadlarga erishishda moliya bozorlari, jumladan sug'urta bozori muhim rol o'ynaydi. Sug'urta tizimi iqtisodiy risklarni kamaytirish hamda investitsion muhitni yaxshilash orqali iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu sababli strategiya doirasida quyidagi vazifalar belgilangan:

- sug'urta bozorini liberallashtirish;
- raqamli sug'urta xizmatlarini rivojlantirish;
- xalqaro sug'urta kompaniyalari bilan hamkorlikni kuchaytirish;
- qayta sug'urta tizimini takomillashtirish.

Bu chora-tadbirlar mamlakat sug'urta sektorining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston sug'urta bozori rivojlanish bosqichida bo'lib, sohada muayyan ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda.

2025-yil holatiga ko'ra, mamlakatda 30 dan ortiq sug'urta kompaniyalari faoliyat yuritmoqda. Ularning bir qismi umumiy sug'urta xizmatlari ko'rsatishga ixtisoslashgan bo'lsa, ayrimlari hayot sug'urtasi bilan shug'ullanadi⁶⁴.

Sug'urta kompaniyalari faoliyati quyidagi asosiy yo'nalishlarni qamrab oladi:

- avtomobil sug'urtasi;
- mulk sug'urtasi;
- hayot sug'urtasi;
- tibbiy sug'urta;
- qishloq xo'jaligi sug'urtasi.

So'nggi yillarda sug'urta sektorida raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayoni ham jadallashmoqda. Masalan, ayrim sug'urta kompaniyalari mobil ilovalar orqali sug'urta polislarini rasmiylashtirish xizmatlarini yo'lga qo'ymoqda. Shuningdek, davlat tomonidan sug'urta sektorini rivojlantirish maqsadida bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, davlat ulushiga ega bo'lgan ayrim sug'urta kompaniyalarini xususiy lashtirish jarayonlari boshlangan. Bu esa bozor raqobatini oshirishga xizmat qiladi⁶⁵.

Biroq, ushbu ijobiy o'zgarishlarga qaramay, mamlakat sug'urta bozorida bir qator muammolar mavjud.

O'zbekiston sug'urta bozorining rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan muammolar quyidagilardan iborat:

- sug'urta madaniyatining pastligi – aholining katta qismi sug'urta xizmatlarining ahamiyati haqida yetarli ma'lumotga ega emas. Natijada sug'urta xizmatlariga bo'lgan talab nisbatan past darajada qolmoqda;

- sug'urta kompaniyalariga bo'lgan ishonchning yetarli emasligi – ba'zi holatlarda sug'urta to'lovlari amalga oshirishdagi muammolar aholining sug'urta kompaniyalariga bo'lgan ishonchini pasaytiradi;

⁶³ <https://t.me/asdruzbekistan> - Strategik rivojlanish va islohotlar agentligi

⁶⁴ Uzbekistan's insurance market grows by 18,8 % in Q1 2025 – UzDaily.uz

⁶⁵ <https://kiaifund.com/> - Uzbekistan's Insurance Market: Growth, Innovation, and Privatization

- qayta sug'urta tizimining yetarlicha rivojlanmaganligi – sug'urta bozorining barqaror rivojlanishi uchun qayta sug'urta tizimi muhim ahamiyatga ega. Biroq mamlakatda ushbu tizim hali to'liq rivojlanmagan;

- raqamlashtirish darajasining pastligi – ko'plab sug'urta kompaniyalarida raqamli xizmatlar yetarli darajada rivojlanmagan. Bu esa mijozlarga xizmat ko'rsatish samaradorligini pasaytiradi;

- kapital yetishmasligi muammosi – ba'zi sug'urta kompaniyalarida kapital yetarliligi darajasi past bo'lib, bu ularning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin⁶⁶.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali - https://gov.uz/en/pages/2030_strategy
2. Yashil iqtisodiy taraqqiyot - <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/>
3. UzDaily.uz - <https://www.uzdaily.uz/en/uzbekistans-insurance-market-grows-by-188-in-q1-2025/>
4. H.Umarov, A.Buriyev. O'zbekiston sug'urta bozorining tahliliy sharhi. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. Ilmiy elektron jurnal. UO'K: 368.912.
5. Strategik rivojlanish va islohotlar agentligi - <https://t.me/asdruzbekistan>
6. Uzbekistan's insurance market grows by 18,8 % in Q1 2025 – UzDaily.uz
7. Uzbekistan's Insurance Market: Growth, Innovation, and Privatization - <https://kiaifund.com/>
8. J. Abdurazaqov. O'zbekiston sug'urta bozorini takomillashtirish. Yashil iqtisodiy taraqqiyot ilmiy elektron jurnali - <https://doi.org/10.5281/zenodo.17369606>

“O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI DOIRASIDA MOLIYA BOZORINING DOLZARB MUAMMOLARI VA UNI ESG TAMOYILLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Jo'rayeva Xolisxon Maxmud qizi

TDIU, Kechki ta'lim va magistratura fakulteti magistranti

Annotatsiya. *Globalashuv sharoitida xalqaro moliya bozorining rivojlanish tendensiyalari mamlakatimiz moliya bozorining ichki infratuzilmalarini tahlil etgan holda rivojlantirish istiqbollari ko'rib chiqishni talab qiladi. Mazkur tezisdan O'zbekiston moliya bozorining hozirgi rivojlanish darajasi, uning iqtisodiy tizimdagi o'rnini hamda moliya bozorini takomillashtirishga to'sqinlik qilayotgan muammolar tahlil qilingan. Shuningdek, “O'zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida moliya sektorini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot jarayonida ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillarini moliya bozoriga joriy etish orqali barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash imkoniyatlari asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *moliya bozori, ESG, kapital bozori, barqaror moliya, investitsiya muhiti, yashil iqtisodiyot.*

Global iqtisodiyotning zamonaviy rivojlanish bosqichida moliya bozori iqtisodiy tizimning muhim tarkibiy qismi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Moliya bozori orqali iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasida moliyaviy resurslar samarali taqsimlanadi hamda

⁶⁶ J. Abdurazaqov. O'zbekiston sug'urta bozorini takomillashtirish. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot ilmiy elektron jurnali <https://doi.org/10.5281/zenodo.17369606>